



TARIXIY TADQIQOTLAR
Ilmiy jurnali

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

TOSHKENT-2024

TARIXIY TADQIQOTLAR
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:
Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Bosh muharrir o'rinbosori:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Shakirov Ilyas Raximzyanovich
t.f.f.d., (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

TAHRIR HAY'ATI
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor, Akademik
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov Alisher Gaffarovich
Siyosiy fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Zuyev Andrey Sergeyevich
tarix fanlari doktori, professor
Novosibirsk Davlat universiteti

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Gabrielyan Sofya Ivanovna
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Siddikov Ravshan Berdimuratovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Narbekov Abdikamil Vafayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy Davlat pedagogika instituti

Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Bababekov Akbar Davurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Zamonov Akbar Turginovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Alinazarova Dildora Valisherovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Tog'ayev Jasur Erkinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

O'sarov Umid Abdumavlyanovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Abdulayeva Nigora Sanjarovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti

Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR	4
2. Bababekov Akbar Davurbayevich O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA	12
3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	26
4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI	44
5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI	60
6. Narbekov Abdikamil Vafaevich YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	70
7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA	83
8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI	100
9. Smesova Katerina Aleksandrovna ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ	112
10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	126
11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД	143
12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI	155

Matyakubova M. M.

t.f.n., dotsent,

Atamuratova D. R.

“Tarix” kafedrası o’qituvchisi

Urganch davlat universiteti

Yakub82@mail.ru

A.dr84@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI

ANNOTATSIYA

XX asrning birinchi choragida jadidchilik harakati yoshlarni tarbiyalashda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida faol qatnashishga jalb qilishdagi tashkilotchilik rolini bajardi. Jadidlarning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida davlat boshqaruvi shaklining muhim rol o’ynashi bilan bog’liq islohotchilik harakatlari o’z davri ilg’or fikrlovchi yoshlari hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan. Maqolada jadidlarning islohotchilik g’oyalarining O’zbekiston tarixida rivojlanib boorish tendensiyalari tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so’zlar: jadidchilik, ilg’or yoshlar qatlami, siyosiy-ijtimoiy vaziyat, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar.

Матьякубов М. М.

к.и.н., доцент

Атамуратова Д. Р.

Преподаватель кафедры “История”

Ургенческий государственный университет

Yakub82@mail.ru

A.dr84@mail.ru

ИСТОРИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В первой четверти 20 века джадидское движение сыграло организационную роль в воспитании молодежи к активному участию в социокультурной жизни общества. Реформаторские действия, связанные с важной ролью формы государственного управления в социально-

экономической, политической и культурной жизни джадидов региона, имели большое значение в жизни прогрессивно мыслящей молодежи своего времени. В статье анализируются тенденции развития современных реформаторских идей в истории Узбекистана.

Ключевые слова: джадидизм, передовой слой молодежи, политическая и социальная ситуация, младобухарцы, младохивинцы.

Matyakubov M. M.

PhD., associate professor

Atamuratova D. R.

Teacher of department of “History”

Urganch state university

Yakub82@mail.ru

A.dr84@mail.ru

HISTORICAL TRENDS OF STATE YOUTH POLICY IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

In the first quarter of the 20th century, the Jadid movement played an organizational role in educating young people to actively participate in the sociocultural life of society. Reform actions related to the important role of the form of government in the socio-economic, political and cultural life of the Jadids of the region were of great importance in the life of the progressive-minded youth of their time. The article analyzes trends in the development of modern reform ideas in the history of Uzbekistan.

Key words: Jadidism, advanced layer of youth, political and social situation, Young Bukharians, Young Khivans.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan ilk yillardanoq mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etgan bolalar va yoshlar masalalariga alohida e’tibor bilan qarab kelmoqda. Yurtimizda bir qator masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ana shunday masalalardan biri yoshlar masalasidir.

O‘zbekiston tarixida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtiroki tarixi XX asrning ikkinchi o‘n yilligida ya’ni jadidchilik g‘oyalari ta’sirida kuchaydi.

2023-yilning 11-12 dekabrda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada prezident Sh.M.Mirziyoyevning o‘zbekistonlik hamda chet ellik olimlarga murojaatida – “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyilini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan intilish hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlar uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi[1]”, deb ta’kidlanishida tom ma’noda ehtiyoj bordek nazarimizda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Jadidlarning islohotchilik g‘oyalari dastlab maktab-maorif sohasida boshlangan bo‘lsa, mustamlakachi chor hukumatining bu ilg‘or qarashlarga munosabati sabab uning yo‘nalishi yanada kengaydi. Ilk bor jadidchilarning boshlagan harakatiga rus hukumati, rus ziyolilari 1882-yil 30-avgustda yig‘in o‘tkazib I.Gaspirinskiy (1851-1914) boshchiligidagi jadidchilarning g‘oyalarini qoraladilar. General gubernator A.Abramov topshirig‘i bilan kelgan rus ziyolilaridan M. Muropiyev jadidchilikni qoralab nutq so‘zlagan. U o‘z nutqida “ularni harakatini va g‘oyalarini qabul qilsak, shu paytgacha mudrab yotgan musulmon mutaassibligini tiriltirgan va bu bilan qo‘ynimizda ilon asragan bo‘lamiz” deya ta’kidlagan edi[2]. Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan, ya’ni yangi usul maktablari tarmoqini kengaytirish, umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish[3].

1890-yili Buxoroda 217 masjid, 185 madrasa faoliyat olib brogan bo‘lib, 1917-yil 26-noyabrda Qo‘qon shahrida 392 masjid, 40 madrasa bo‘lgan. 90-yillarda Turkistonga Ismoilbek Gaspiralining yangi usul uslubidagi maktab tizimi kirib keldi. A.V.Pyaskovskiy ma’lumot berishicha, 1895-1901-yillarda Toshkentda

to'rtta, 1907-yili Turkistonda 30 ta jadid maktabi bo'lib, 1300 bola o'qir edi. Chor hukumati bunga qarama-qarshi holda rus-tuzem maktabiga zo'r berdi. 1884-yili Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi, 1891-yili Xivada, 1894-yili Buxoroda tashkil qilindi. 1892-yili o'lkaning o'zida ularning soni 21 taga yetdi. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170 ta rus-tuzem maktabi bor edi. Maktablar rus ma'murlariga mahalliy xalq orasida ruscha biladigan yordamchi xizmatchilar yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Aslini olganda, rus hukumatiga so'zamol, haqtalab xizmatchilar emas, ruscha tutilib-tutilib gapiradigan chalasavodlar, xo'jayin tomoq qirsa dik etib xizmatga turadigan itoatkorlar kerak edi. Bu maktablarning ko'proq shunga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi[4].

1905-yilgi rus inqilobi, 1908-1913-yillarda Turkiya, Eron, Hindistonda bo'lib o'tgan milliy-ozodlik harakatlari va inqiloblar ta'siri ostida Turkiston jadidlari Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Fayzulla Xo'jayev (1896-1938), Ubaydulla Xo'jayev (1878/1886-1942) va boshqalar o'lkaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga yanada faolroq kira boshladilar. Buxoro va Turkistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy doiralarida ular islohotlar foydasiga ijtimoiy fikrni shakllantirishga urindilar, eskicha hayot va rus mustamlakachilik boshqaruvi tomonidan shart qilib qo'yilgan qoloqlik va turg'unlikka qarshi kurashdilar. Ular bu islohotlar amalga oshirilishi zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki yangi usulda o'qitilayotgan maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o'quv qo'llanmalari tayyorlab, o'lka yoshlari ongini rivojlantirish yo'lida ko'p harakatlar qildilar[5]. 1916-yilda yosh turklarning "Birlik va taraqqiyot" partiyasi namunasi asosida jadidlar o'zlarini yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar deb yurita boshladilar.

Xorazmda Yosh xivaliklar partiyasi 1904-1905 yillarda hamfikir, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatidagi faoliyatida amaldorlar, ma'rifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarni birlashtirgan, 1917-yilda Xiva xoniga muxolifat sifatida siyosiy maydonga chiqib, 1918-yildan esa rasmiy siyosiy kuch sifatidagi faoliyati yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Harakat rasman Xivada 1914-yili

“Yosh xivaliklar” inqilobiy tashkilot tuzilib, P.H.Yusupov rais hamda J.Boboniyozov, O.Safayev, B.Yaqubov, H.Jonmuhammedov, M.Abdullayev, X.Devonov, O.Xo‘janiyozov, R.Yakubov, M.Umarov, H. Muhammad Murod (Matmurod) devonbegi o‘g‘li, J.Sultonmurodov, N.Sholikorov, S.Jumaniyozovlar haqiqiy a‘zolikka saylandilar[6]. 1918-yil 5-iyunda Yosh xivaliklar inqilobiy partiyasi o‘z dasturi, tuzilishi, muxriga ega bo‘lgan rasmiy tashkilot sifatida to‘la shakllangan[7]. N.Qalandarov “Xiva kommunistik tashkiloti”ga Yosh xivaliklar partiyasining To‘rtkul (Petro-Aleksandrovska) qo‘mitasi asos bo‘lganligini ta’kidlaydi[8]. RKP (b)ning Petro-Aleksandrovska qo‘mitasi xivaliklarni qo‘llab, 1919-yil 15-iyulda Yosh xivaliklar inqilobiy qo‘mitasidan tashkil topgan Yosh xivaliklar a‘zolarini RKP (b) Petro-Aleksandrovska qo‘mitasi ro‘yxatiga kiritish va ulardan Yosh xivaliklar bo‘limini tashkil qilish haqida qaror qabul qildi[9]. Bu davrda endigina shakllanib kelayotgan ilg‘or fikrli yoshlar urush va xon olib borayotgan siyosatni qoralab, unga qarshi mehnatkashlar orasida tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib bordilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Boboxun Salimov rahnamolik qildi.

Tarixchi N.Polvonov 1920-yil may oyida Markaz vakillarining ko‘rsatmasiga binoan, Xorazmda ko‘p firqalik ta’qiqlangach, mahalliy xususiyatlarni o‘zida ko‘proq ifoda qiladigan firqa – Yosh xivaliklar partiyasi o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lganligini qayd etadi[9]. Q.Rajabov Yosh xivaliklar 1921-yil mart oyigacha faoliyat ko‘rsatganligini ta’kidlaydi[10]. 1920-yil 4-aprelda Rossiya bolsheviklarining sa‘y-harakatlari bilan Xiva shahrida kommunistlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilib Xorazm kompartiyasining tashkilot qo‘mitasi saylandi[11]. 1921-yil 6-mart kuni XXSRning Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi qonuniy hokimiyatni ag‘darib, davlat to‘ntarishini amalga oshirgan M.Safonov bo‘lsa, 1921-yil 27-noyabrda Otamaxzum oxun Muxammadraximov boshliq hukumatni badnom qilish va davlat to‘ntarishini amalga oshirishda Bikning “xizmat”lari katta bo‘ldi[12]. Bu ishlarning katta ko‘pchiligi Xorazm kommunistik yoshlar ittifoqi a‘zolarining qo‘li bilan amalga oshirildi.

1920-yilda tashkil topgan BXSР va XXSRning birinchi konstitutsiyasi qabul qilinib unda 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro qurultoy va mahalliy sho'rolarga saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldi[13]. Qolaversa, XXSR va BXSРda qabul qilingan mazkur konstitutsiya xotin-qizlarni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lganligini tasdiqlab erkaklar bilan huquq va erkinliklarini tenglashtirdi[14]. 1923-yildagi XXSR Konstitutsiyasida XKP, Xorazm Kommunistik yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmalari, qo'shchi soyuzlari o'z nomzodlarini hukumatga kiritish huquqiga ega bo'ldilar[9].

F.Xo'jayev boshchiligidagi BXSР hukumati o'sha paytda dunyodagi eng ma'lumotli kishilar jamlangan hukumatlardan biri hisoblangan. Nozirlar Buxoro, Istanbul, Berlin, Moskva va boshqa shaharlarda ta'lim olishgan edi. Buning ustiga hukumat a'zolari asosan 24 yoshda bo'lib, nozirlarning o'rtacha yoshi 29 yoshdan oshmagan. Nafaqat O'zbekiston, balki jahon yangi tarixida ham bunday yosh hukumat uchramaydi[15]. Ular orasida Yosh buxorolik jadidlardan F.Xo'jayev, Q.Po'latov, M.Saidjonov, Usmon Xo'ja, N.Husainov, Y.Ibrohimov, M.Burhonov, B.Shibabuddinov, A.Yusufzoda, M.Mansurov, M.Muhitdinovlar bo'lgan.

1917-yil Fevral inqilobidan so'ng Yosh buxoroliklar o'z ichida 2 bo'lindi: asta-sekin isloh qilish tarafdorlari bo'lmish jadidlarga A.Burhonov, S.Ayniy hamda islohot sohasida faol harakatlarni qo'llovchi nisbatan kamchilikni tashkil etgan A.Fitrat va F.Xo'jayevlar yetakchilik qildi[15]. 1917-yilda Abdurauf Fitrat yangi Turkistonning fuqarosini tarbiyalash uchun yaxshi tayyorlangan o'qituvchi zarurligini tushunib yetib, iste'dodli o'spirinlarni Rossiyaning Yevropa qismidagi o'qituvchilar seminariyalariga va musulmon maktablariga yuborish taklifi bilan chiqdi[11]. Masalan, 1920-yillarda Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida 1923-yilning kuzida 77 nafar Turkistonlik yoshlar tahsil oldi, ularning 24 nafari O'zbekistonlik edi[16]. Ularning orasida A.Murodiy, A.Berimjon, S.Muhammad, S.Alixo'ja, A.Abdusaid, A.Ibrohim, S.Matqul, Bilol, T.Mo'min, O.Ibrohim, S.Ibrohim, Atoulllo, A.Shukriy, A.Naim, T.Shokir, A.Is'hoq, Shamsulbanot, G.Muzaffarlar bor edi[17].

Yosh xivaliklar hamda yosh buxoroliklar harakatlarining ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini ba'zi hujjatlar misolida ko'radigan bo'lsak:

1918-yil iyul oyida Yosh xivaliklar o'z dasturlarini ishlab chiqdilar. Bunda ular o'zlarini Xiva inqilobiy partiyasi, deb ataganlar. "Manifest" tarzidagi bu dasturning dastlab quyidagi punktlari bo'lgan:

Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatdagi yakka boshqaruvni butunlay tugatish;

Xiva hududini Turkiston Respublikasiga qo'shib, RSFSR tarkibiga kiritish;

Xiva xoni, to'ralar, beklar va vazirlarning boyligi, har xil ko'rinishdagi mulkklarini xalq boyligi deb e'lon qilish;

Yirik yer egalari mulklaridan kambag'allar hayotini yaxshilashda foydalanish;

Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash;

Xivadagi yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish;

Bolalarni bepul o'qitish uchun Xivada maktablar ochish;

Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi olingan yer va boshqa boyliklarni o'z egalariga qaytarish;

Asfandiyorxon hukmronligi davrida xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish;

Ko'priklar va aloqa yo'llarini yaxshilashga kirishish;

Beklar tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va mulklarni o'z egalariga qaytarish, majburiy tekin mehnat (begor)ni butunlay tugatish;

Xon va uning hukumatini tugatish, xalq hokimiyatini tuzish va yuqoridagi dasturni amalga oshirishga tezda kirishish, xalq xokimiyatiga qarshi bo'lgan xon tarafdorlari, burjuaziya va aksilinqilobchilarga qarshi ayovsiz kurash olib boorish[18].

Yoki Yosh buxoroliklar hamda Kolesov bilan amirga imzo chekish uchun tayyorlangan manifestda:

1) so'z, matbuot va boshqa demokratik erkinliklar beriladi;

- 2) amir huzurida Yosh buxoroliklardan iborat maxsus Kengash bo'lishi kerak, amirning maslahatchilari o'z lavozimlaridan bo'shatiladi;
- 3) Buxoro hukumatining barcha a'zolari Yosh buxoroliklar partiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi a'zolar bilan almashtirilishi lozim;
- 4) o'lim jazosi va tan jazosi berilishi bekor qilinishi darkor;
- 5) bir qator soliqlar bekor qilinishi zarur[19].

Bundan ko'rinadiki bu harakatlar a'zolari o'z davri uchun zamonaviy davlat boshqaruviga asoslangan, insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan. Bundan ko'rinadiki, XX asr boshlarida o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan jadidchilik nomi bilan tanilgan bu kuch jamiyatning eng ziyoli, saralangan qismidan, ya'ni yoshlar, shakllanayotgan tadbirkorlar, milliy ziyolilar va ma'rifatli ruhoniylarni birlashtirdi[20].

XULOSA

Jadidchilik mafkurasi orqali o'lka jadid maktablarining faoliyati, ularda shu davr nuqtai nazaridan yangicha o'qitish uslublari yo'lga qo'yildi. Ular yoshlarni tarbiyalashda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida faol qatnashishga jalb qilishdagi tashkilotchilik rolini bajardilar. Jadidlarning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida davlat boshqaruvi shaklining muhim rol o'ynashi bilan bog'liq islohotchilik harakatlari o'z davri ilg'or fikrlovchi yoshlari hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Jadidchilik g'oyalari O'rta Osiyoda XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 20-30-yillarida o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Jadidlarning pirovard maqsadi millatni, bir tomondan, ilmli-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning erkinligi uchun kurash olib borishi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatish edi. Jadidchilik ta'sirida yuzaga kelgan "yosh buxoroliklar", "yosh xivaliklar", "yosh sartlar" deb nom olgan ijtimoiy – ma'rifiy harakatlar yuzaga keldi.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. https://uza.uz/oz/posts/jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-video_547067

2. Egamnazarova Z., Ne'matova N. Jadidchilik g'oyalarining yuzaga kelishi va harakatning asosiy maqsadlari. "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar" // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – T.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.
3. Yunusova X. «1892 yil Toshkentdagi xalq qo'zg'oloni». Toshkent, 1998.
4. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т: Маънавият. 2004. – Б. 11.
5. Ражабова Д.Н. Туркистон жадиdlарининг карашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари. Тарих фан. номз. дисс. ... – Т., 2003. – Б. 23.
6. Ўзбекистон МДА. 125-И-фонд, 1 -рўйхат, 609-иш, 7-8-вараклар. (batafsil: Қўшжонов Н., Полвонов О. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: "ABU MATBUOT-KONSALT" МЧЖ, 2007. – Б. 283.)
7. Қўшжонов Н., Полвонов О. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: "ABU MATBUOT-KONSALT" МЧЖ, 2007. – Б. 294.
8. Каландаров Н. Образование и деятельность Хорезмской коммунистической партии. Т., 1975. – С. 56.
9. Қўшжонов Н., Полвонов О. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: "ABU MATBUOT-KONSALT" МЧЖ, 2007. – Б. 327.
10. Ражабов Қ. Ёш хиваликлар //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 3. 498-500-бетлар
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: "Шарқ", 2000. – Б. 121.
12. М. Маткаримов. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди, 28-бет.

13. Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халк Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли. // Ўзбекистан давлатчилиги тарихи очерклари. Т.: Ш арқ, 2001. Б. 185-202.

14. Тохтахунов А.М. Высшие органы государственной власти первых народных республик на Востоке (На опыте БНСР, ХНСР и МНР). Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Т., 1980. С. 15.

15. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон тарихи 1917 – 1939 йилларда. – Тошкент.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б. 135.

16. Ўзбекистон ССР тарихи...379-бет.

17. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. - Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 145.

18. Мухамедбердиев К История Хорезмской революции. Т.: Фан, 1986, С. 62-63.; Ирзаев Б., Раҳмонова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 30-31.

19. Бухоро Шарқ дурдонаси. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. – 71-б.

20. Новейшая история Узбекистана. Т.: «Адабиёт учқунлари», 2018. – С. 464.